

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK_37:371.5-371.595**

ABDURAIMOV SIROJIDDIN FAXRIDDIN O'G'LI

**IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI MAKTAB RAHBARLARINING BOSHQARUV
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI**

70110103-Ta'lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi bo'yicha Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

p.f.f.d., dotsent N.Achilov

Termiz-2024 yil

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 202_-yil _____ sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti “Pedagogika va ijtimoiy ish” kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ p.f.f.d., dotsent. N.A.Achilov

Kafedra mudiri: _____ p.f.n., dotsent. M.Mirzayev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ k.f.f.d.,PhD. D.Abduraximov

70110103-Ta'lim muassasalarining boshqaruvi mutaxassisligi magistranti Abduraimov Sirojiddin Faxriddin o'g'li "Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullari" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

ANNOTATSIYA

Tayanch so'zlar: Ixtisoslashtirilgan maktablar, agentlik, innovatsion boshqaruv, rahbar, boshqaruv samaradorligi.

Tadqiqot obyektlari: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Termiz shahar, Qumqo'rg'on va Sho'rchi tumanlaridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda faoliyat olib borayotgan 40 nafar rahbarlar va ularning o'rinbosarlari hamda pedagog xodimlar ishtirok etdi.

Ishning maqsadi: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodlari: Tadqiqot vazifalariga muvofiq kuzatish, anketa so'rovlari, pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish ta'lim tizimini tashkil qilish asosiy turlaridan biri bo'lib ushbu dissertatsiya ishida quyidagi natijalar olindi:

- tadqiqot faoliyati jarayonida olingan natijalar ta'lim muassasalarini samarali boshqarishda foydalanishga xizmat qiladi;
- boshqaruv jarayonini o'rganish va tahlil qilishda boshqaruvchanlik qobiliyatini oshiruvchi texnologiyalarni qo'llash va amal qilish omillari aniqlandi va kadrlar uchun amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari tahlil qilingan;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish modeli ishlab chiqilgan;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullari aniqlashtirilgan;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorlik natijalari tahlil qilingan.

Ushbu dissertatsiya ishida boshqarish samaradorligini oshirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qancha tajribalar yoritilgan, tahlil qilingan, asoslangan va boshqaruv samaradorligini oshirish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot mavzusiga oid tayyorlangan modellar Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda boshqaruvning innovatsion pedagogik va psixologik bilimlaridan foydalanishga yordam berdi.

Tadqiqot mavzusiga oid tayyorlangan boshqaruv usullari ta'limda boshqaruv sohalarini amaliy jihatdan boyitishga xizmat qildi.

Tadqiqot mavzusiga oid qilingan ilmiy izlanishlar asosida olingan tadqiqot natijalari ixtisoslashtirilgan maktablarning rahbar xodimlari orasida targ'ibot va tashviqot ishlari olib borilishiga xizmat qildi.

Tadqiqot mavzusiga oid ishlanmalardan, shuningdek, yangi dasturlar asosida maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati innovatsion tashkil qilindi.

Tadbiq etish darajasi: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullarini o'rganish va ularning mohiyatini ochib berish maktab rahbarlarining ish samaradorligini oshiradi va tizimda sifatni ko'tarilishiga xizmat qiladi.

Ushbu dissertatsiya ishidan olingan natijalardan nafaqat ixtisoslashtirilgan maktablar, balki umumiy oʻrta taʼlim maktablarida ham boshqaruv pedagogikasi bilimlaridan foydalanish boʻyicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan akademik litseylar, texnikumlar, professional taʼlim muassasalari va hatto ijtimoiy soha bilan shugʻullanuvchi tadqiqotchilar ham amaliy faoliyatida keng foydalanishlari mumkin.

Qoʻllanilish sohasi: Ixtisoslashtirilgan maktablar, umumiy oʻrta taʼlim maktablari, akademik litseylar, texnikumlar, professional taʼlim muassasalari va ijtimoiy soha.

ANNOTATION

“Methods of increasing the effectiveness of management activities of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions” master’s dissertation on the topic

Keywords: Specialized schools, agency, innovative management, leader, management effectiveness.

Objects of research: The process of improving the efficiency of the management activities of the school leaders in the system of the Agency of Specialized Educational Institutions has been determined, and in the experimental work 40 leaders and their teachers working in the schools of the Agency of Specialized Educational Institutions in the cities of Termez, Kumkurgan and Shurchi districts participated.

Purpose: To study the possibilities of improving the effectiveness of management activities of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions, to develop suggestions and recommendations.

Research methods: The methods of observation, questionnaire surveys, pedagogical analysis, comparative analysis and mathematical-statistical analysis.

Gold results and their news: Improving the effectiveness of management activities of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions is one of the main types of organization of

the educational system, and the following results were obtained in this dissertation:

- the results obtained in the course of research activities serve to be used in the effective management of educational institutions;

- in the study and analysis of the management process, the factors of application and implementation of technologies that increase manageability were determined, and practical conclusions and recommendations were developed for personnel;

- the theoretical foundations of the management activity of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions were analyzed;

- a model for improving the effectiveness of management activities of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions was developed;

- the methods of improving the efficiency of management activities of school heads in the system of the agency of specialized educational institutions have been determined;

- the results of management activities of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions were analyzed.

In this dissertation work, several experiences that can be used to improve management efficiency are highlighted, analyzed, based, and recommendations for improving management efficiency are developed.

Practical significance: Prepared models related to the research topic helped to use innovative pedagogical and psychological knowledge of management in schools within the system of the Agency of Specialized Educational Institutions.

The prepared management methods related to the research topic served to enrich the fields of management in education from a practical point of view.

The research results obtained on the basis of scientific research related to the topic of the study served for promotion and propaganda work among the leading staff of specialized schools.

Based on the developments related to the research topic, as well as new programs, management activities of school leaders were organized innovatively.

Level of implementation: Studying the methods of increasing the effectiveness of management activities of school leaders in the system of the agency of specialized educational institutions and revealing their essence will increase the work efficiency of school leaders and serve to improve the quality of the system.

From the results obtained from this dissertation work, not only specialized schools, but also from the results of research on the use of knowledge of management pedagogy in general secondary schools, academic lyceums, technical schools, professional educational institutions and even researchers engaged in the social sphere can be widely used in practical activities.

Field of application: Specialized schools, general secondary schools, academic lyceums, technical schools, professional educational institutions and the social sphere.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARUV FAOLIYATINING ASOSLARI.....	8
1.1-§. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarning mazmuni va mohiyati.....	8
1.2-§. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati pedagogik muammo sifatida.....	18
1.3-§. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlari boshqaruv faoliyatining mavjud holati.....	28
I bob yuzasidan xulosalar	38
II BOB. IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARUV FAOLIYATINING AMALIY JIHALARI.....	41
2.1-§. Ixtisoslashtirilgan maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligi mazmuni.....	41
2.2-§. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish modeli.....	47
2.3-§. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullari	64
II bob yuzasidan xulosalar.....	66
III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA SINOV ISHI NATIJALARI VA ULARNING TAHLILI	67
3.1-§. Pedagogik tajriba sinov ishlarini tashkil etish maqsadi va vazifalari...	67
3.2-§. Pedagogik tajriba sinov ishlari natijalarining matematik-statistik tahlili	70
III bob yuzasidan xulosalar.....	74
XULOSALAR.....	76
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	78

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi: Har qanday davlat taraqqiyoti va rivojlanishini belgilab beradigan asosiy omillardan biri – bu kadrlarning o‘z sohasi bo‘yicha mukammal bilim olganligi va ruhiy jihatdan barkamolligi, shaxsning ma‘naviy yetukligi, o‘zligini anglaganligi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak hislarning rivojlantirilganlik darajasiga bog‘liq. Bugungi kunda ta‘lim tashkilotlarini boshqarish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim muassasasi rahbar xodimlarning psixologik kompetentligini modellashtirish strategik rivojlanishning muhim yo‘nalishi sifatida amaliyotga tatbiq etilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Dunyomizning o‘zgarishi: 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish uchun kun tartibi” dasturi hamda “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun taraqqiyot siyosatiga doir tadbirlarni har tomonlama joriy qilish, jadallashtirish va qo‘llab-quvvatlash”¹ (MAPS) yondashuviga asoslanib, ta‘lim muassasalarining boshqaruv tizimi uchun rahbar kadrlarni tanlash, tayyorlash, nomzodlarni bilim saviyasini va malakasini oshirish bilan bog‘liq shart-sharoitlarni yaratish hamda ularni psixologik kompetentligi mazmunini takomillashtirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda”².

Jahondagi ta‘lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida rahbar va o‘rta bo‘g‘in rahbarlari kompetentligini modellashtirish, kasbiy tajriba asosida rahbar boshqaruv kompetentligini rivojlantirish, rahbar ijtimoiy-perseptiv kompetentligini baholash tizimini optimallashtirish, boshqaruvchi kommunikativ kompetentligini xalqaro hamkorlikda rivojlantirish, rahbar Umum kompetentligini akmeologik baholash, madaniyatlararo munosabatlar sharoitida rahbar ijtimoiy kompetentligini takomillashtirish, yosh rahbarlarning

¹ N .M .Ziyaviddinova, Y.M.O‘rinov, Sh.N.Xayitov Menejment: o‘quv qo‘llanma. - T.: «Tafakkur-Bo‘stoni», 2012-yil, 312 bet.

²Юлдашев Р.Т. Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя 2018 с. 327-с

ijtimoiy-psixologik kompetentligini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu jihatdan ta'lim menejmenti yo'nalishida boshqaruvchilar tayyorlaydigan davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishning istiqbolli yo'nalishlari Umum, ijtimoiy-kommunikativ, ijtimoiy-informatsion, ijtimoiy-psixologik, kognitiv, uslubiy-maxsus, ijtimoiy-madaniy va autopsixologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida Umum ta'lim muassasalari rahbarlarining psixologik kompetentligini modellashtirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.³

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" to'g'risidagi farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida" PF-5538-son Farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida" PQ-3931-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi "2022- 2026-yillarda xalq ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi PF-134-son Farmoni hamda mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur magistrlik dissertatsiyasi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot ob'yekti: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Termiz shahar, Qumqo'rg'on va Sho'rchi tumanlaridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda faoliyat olib borayotgan 40 nafar rahbarlar va ularning o'rinbosarlari hamda pedagog xodimlar ishtirok etdi.

³ЮЛДАШЕВ Р.Т. Организационно-педагогические проблемы повышения профессионального мастерства учителя 2018 й 146-с

Tadqiqot predmeti: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish mazmuni, metod, usul va vositalari.

Tadqiqotning maqsadi: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyatlarini o'rganish, taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyatining nazariy-amaliy asoslarini tahlil qilish;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish modelini ishlab chiqish;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullarini aniqlash;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorlik natijalarini tahlil qilish.

Ilmiy yangiligi:

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlari boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari tahlil qilingan;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish modeli ishlab chiqilgan;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullari aniqlashtirilgan;

- ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorlik natijalari tahlil qilingan.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi. Jahon amaliyotida boshqarish samaradorligini oshirish muammosi Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla

Avloniy va boshqalarning asarlarida boshqaruvchining zarur bo'lgan sifatlar majmui, ularning o'ziga hos boshqaruv fazilatlarini haqidagi qarashlar yoritilgan.

Respublikamiz olimlari tomonidan pedagog-kadrlarni kasbiy tayyorlashning pedagogik asoslari, tashkiliy-metodik shart-sharoitlari, tamoyillari, ushbu jarayonni tashkil etishga qo'yilayotgan ijtimoiy-pedagogik talablar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining pedagog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy malakasini oshirishdagi o'rnini R.H.Jo'raev, U.I.Inoyatov, M.Aripov, M.M.Kamilov, Sh.E.Qurbonov, T.F.Bekmurotov, T.F.Jo'raev, U.Sh.Begimqulov, A.R.Hodjaboev, boshqalar tomonidan o'rganilgan.

MDH mamlakatlarida rahbar xodimlar malakasini oshirishning ilmiy-nazariy va pedagogik asoslari, ta'lim sifati menejmentini takomillashtirish masalalari N.Xomskiy, L.A.Petrovskaya, A.V.Xutorskiy, D.A.Ivanov, L.N.Bulgina, T.A.Maxracheva, O.N.Orlova va boshqalar tomonidan olib borilgan. Shuningdek, tashkilotlarning zamonaviy nazariyalari, ularning rivojlanishining hayot davrlari, innovatsiyalar orqali rivojlanishi V.A.Barinov va A.V.Sinelnikov, S.D.Beshelev va F.G.Gurvich, I.V.Jejko, E.I.Kushelev, A.I.Prigoji, N.R.Yusufbekova va boshqalar tomonidan, tashkilotlarni boshqarish nazariyasi, dasturiy maqsadli menejment, menejment psixologiyasi, xodimlarni boshqarish, loyihalarni boshqarish, tizimli, tizimli-maqsadli boshqaruv g'oyalari K.S.Bajin, V.S.Byalkovskaya, V.R.Vesnin, O.S.Vixanskiy va A.I.Naumov, T.P.Galkina, E.P.Golubkov, V.N.Kirichenko, T.S.Kabachenko, V.A.Karpov, V.Yu.Krichevskiy, E.B.Kurkin, R.Marr va B.Milner, V.Shekshtniyalar tomonidan ilmiy asoslangan, demokratlashtirish, markazsizlashtirish, insonparvarlashtirish, davlat, jamiyat, ta'lim muassasasining manfaatlari va ehtiyojlarini uyg'unlashtirish g'oyalari asoslangan ta'limni boshqarish falsafasi M.M.Potashnik va T.I.Vanova, V.P.Sergeeva, V.Simkhovich, V.L.Tambovtsev, R.Vaterman, A.Furs, L.V.Xazova, E.Chashchin, V.A.Shtof kabi olimlar tomonidan o'rganilgan, tashkilotning boshqaruv tizimini rivojlantirish yo'nalishini belgilovchi, xodimlarni boshqarish tizimini shakllantirishga

qo'yiladigan talablarni tavsiflovchi tamoyillar V.G.Afanasiev, S.V.Vaksman, A.A.Dremchuk, E.M.Sarabun va L.N.Timchishina, A.L.Kibanovidrlar tomonidan, tashkilotlarning boshqaruv tizimlarini modernizatsiyalash, loyihalash va baholash tushunchalari V.N.Burkov va V.A.Irikov, G.Gabdullin, B.S.Gershunsky, N.V.Gorshunova, , A.E.Kapto, A.V.Lorensov va O.G.Xomeriki, V.S.Pikelnaya, V.S.Rapoport, V.P.Simonov, A.P.Stukanovalar tomonidan tahlil qilingan bo'lsa, ta'lim muassasalari rahbarlarining malakasini oshirish konsepsiyalari V.I.Dolgovaya, E.S.Zair-Bek, I.R.Nazarenko, L.I.Lutsenko, Yu.A.Neumer, E.P.Tonkonogaya, V.Shepel, E.Rudnev, O.N.Shcherbanenko va boshqa bir qator olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy olimlardan R.B.Lang-Akan, L.M.Spenser, J.Milo, R.L.Draft va boshqalar Umumta'lim tizimida rahbar xodimlarni malakasini oshirish jarayonida zaruriy kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan.

Yuqorida nomlari qayd pedagog-kadrlarni kasbiy tayyorlashning pedagogik asoslari, tashkiliy-metodik shart-sharoitlari, tamoyillari, umum ta'lim muassasalari rahbarlari tashkiliy boshqaruv faoliyatini samaradorligini oshiruvchi omillarni, umumta'lim tizimi rahbarlari tashkiliy boshqaruvida uchraydigan muammolariga yechim topish va bartaraf qilish usullarini ishlab chiqish yuzasidan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ishlar amalga oshirilgan bo'lsada, **“Ixtisoslashtirilgan ta'im muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullari”** muammosi alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqot vazifalariga muvofiq kuzatish, anketa so'rovlari, pedagogik tahlil, qiyosiy tahlil va matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda boshqaruvning innovatsion pedagogik va psixologik bilimlaridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalari ta'limda boshqaruv sohalarini

nazariy va amaliy jihatdan boyitishga xizmat qiladi. Olingan tadqiqot natijalari asosida ixtisoslashtirilgan maktablarning rahbar xodimlari orasida targ'ibot va tashviqot ishlari olib borildi.

Nafaqat ixtisoslashtirilgan maktablar, balki umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham, boshqaruv pedagogikasi bilimlaridan foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqot natijalaridan akademik litseylar, texnikumlar, professional ta'lim muassasalari va hatto ijtimoiy soha bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar ham amaliy faoliyatida keng foydalanishlari mumkin.

- tadqiqot faoliyati jarayonida olingan natijalar ta'lim muassasalarini samarali boshqarishda foydalanishga xizmat qiladi;

- boshqaruv jarayonini o'rganish va tahlil qilishda boshqaruvchanlik qobilyatini oshiruvchi texnologiyalarni qo'llash va amal qilish omillari aniqlandi va kadrlar uchun amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi:

Ushbu tadqiqot ishi kirish, 3 bob, 8 paragraf, har bir bob bo'yicha xulosa, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismlardan tuzilgan.

I BOB. IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARUV FAOLIYATINING NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarining mazmuni va mohiyati.

Tarixiy, umumjahon tajriba va andozalari umumlashtirilib, hozirgi mustaqillik davrning boshqaruvchisi, rahbari qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak,

qanday ish uslubi uni va tashkilotni muvaffaqiyatga eltadi, vaqtdan samarali foydalanish, odamlar bilan muomalada nimalarga e'tibor qaratish lozim kabi savollarga javob izlash hamda boshqa jihatlarni o'rganish ushbu magistrlik ishining maqsadlaridan hisoblanadi.

Prezident maktabi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim muassasasi hisoblanib, uning faoliyati yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitishni ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasida ta'limni yanada rivojlantirish maqsadida 14 ta Prezident maktabi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi «Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4199-qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida tashkil qilinadi. 2019-yilda Prezident maktab-internatlari Toshkent, Xiva, Nukus va Namanganda ochildi. Prezident maktablarining dastlab cheklangan miqdorda tashkil etilishi ushbu muassasalarni boshqarish uchun mutlaqo yangi modelni sinab ko'rish zarurati bilan bog'liq edi. Prezident maktablarini 2020 - 2021-yil oralig'ida O'zbekistonning barcha viloyatlarida qurish rejalashtirilgandi va ko'zlangan maqsadga erishildi. Prezident maktablarida bepul umumiy o'rta ta'lim beriladi. Prezident maktablarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitish tizimini shakllantirish, shuningdek, iqtidorli yoshlarni qo'llab-

quvvatlash va rag'batlantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashdan iborat. Shu borada Respublikamizning barcha tuman hududlarida ham Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar joriy etildi. Yuqori bilim va salohiyatga ega pedagog kadrlarni ishga olish maqsadida saralash testlari o'tkazilini 70% dan yuqori natijalarni qo'lga kiritgan xodimlar keingi bosqichga ya'ni suhbatga o'tkazilindi. Suhbat jarayonlari xorijiy va mahalliy mutaxassislar tomonidan olib borildi. Bundan tashqari bilimli o'quvchi yoshlarni saralab olish maqsadida ham 2 bosqichli test jarayonlari o'tkazilindi va qabul qilingan o'quvchilar 2022-yil 5-sentyabrdan an'anaviy ta'lim dasturini boshlashdi. Yangi tashkil etilgan ta'lim muassasalarini 100% sharoit bilan ta'minlash maqsadida davlat tomonidan juda katta pul mablag'lari ajratildi. Maqsadimiz ham shundan iborat bo'ldiki, millatning xalqaro olimpiadalarda, tanlovlarda g'olib bo'ladigan va dunyoning eng yaxshi oliy o'quv yurtlariga kira oladigan kelajakdagi yetakchilarini, o'quvchilarini tayyorlashdir. Biz jahon maydonida raqobatbardosh bo'la oladigan yetakchilarni tarbiyalaymiz.

Agentlik maktablari faoliyatining asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari:

- Iqtidorli bolalarni aniqlash, tanlash va o'qitish, ularning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, shuningdek o'quvchilarning intellektual, ilmiy va ijodiy salohiyatini ochib berish;
- Tabiiy va aniq fanlarni chuqur o'rganish, xorijiy tillar, muhandislik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirishni tashkil qilish, o'quvchilarning innovatsion g'oyalari va ishlanmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;
- O'quvchilarni o'qitish va ular bilimni baholashning zamonaviy uslublarini, shuningdek ta'lim dasturlarining integratsiyalashuviga asoslangan o'qitishning fanlararo yondashuvini joriy qilish va keyinchalik ijobiy tajribani Respublika xalq ta'limi tizimiga tatbiq etish;

- O`quvchilarni kasb-hunarga yo`naltirish, ularda yetakchilik ko`nikmalari va notiqlik san`atini rivojlantirish, tanqidiy fikrlash, axborotni izlash, tahlil qilish va qayta ishlash, olingan bilimlarni amaliyotda qo`llash bo`yicha malakasini oshirish;
- O`quvchilarning umumta`lim fanlari bo`yicha xalqaro olimpiadalar, tanlovlar va musobaqalarda munosib ishtirokini ta`minlash;
- O`quvchilarda vatanparvarlik va Vatanga muhabbat tuyg`usini, bag`rikenglik, qonunlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini, hayotga qat`iy ishonch va qarashlarni shakllantirish;
- O`quv dasturlarining uzluksizligini ta`minlash masalalarida xuddi shu yo`nalishdagi milliy va xorijiy, umumiy o`rta va oliy ta`lim muassasalari bilan hamkorlikni yo`lga qo`yish, bitiruvchilarning ilg`or xorijiy oliy o`quv yurtlarida va ularning respublikamizdagi filiallarida o`qishini davom ettirish.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan “Prezident ta`lim muassasalari agentligi tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog`ini kengaytirish to`g`risida”gi yangi farmoni qabul qilindi.

Unga ko`ra, ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishga yagona yondashuvni shakllantirish, ushbu maktablar tarmog`ini kengaytirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ta`lim jarayoniga malakali rahbar va pedagog kadrlarni jalb qilish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, tanlash, o`qitish va tarbiyalash tizimini takomillashtirish maqsadida:

1. “Prezident ta`lim muassasalari agentligi (keyingi o`rinlarda — Agentlik), Xalq ta`limi vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining quyidagi takliflari ma`qullansin:

a) Agentlik tizimida:

2022-yil 1-sentabrga qadar vazirlik, idora va tashkilotlar tasarrufida bo`lgan ta`lim muassasalari negizida 19 ta ixtisoslashtirilgan maktab-

internatlarni hamda 141 ta ixtisoslashtirilgan maktablarni 1 va 2-ilovalarga muvofiq;

2023-yil 1-iyunga qadar Xalq ta'limi vazirligi tasarrufida bo'lgan va faoliyati tugatilgan Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalari negizida 5 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni hamda 3 ta ixtisoslashtirilgan maktablarni 3-ilovaga muvofiq tashkil etish;

b) 2022 — 2024-yillarda Agentlik tizimida 25 ta ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarni 4-ilovaga muvofiq qurish;

v) 2022/2023 o'quv yilidan boshlab Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi ayrim fanlarni chuqur o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktablar negizida ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablarini tashkil etish;

g) kelgusida yangi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablarni faqat Agentlik tizimida tashkil etish".⁴

Mas'ul vazirlik, idora va tashkilotlar bir oy muddatda mazkur Farmonning 1 — 3-ilovalarida ko'rsatilgan ta'lim tashkilotlarining mol-mulki, bino va inshootlarini operativ boshqaruv huquqi asosida Agentlik tizimiga o'tkazish choralari ko'rsin.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklari 2023-yil 1-yanvarga qadar Agentlik tizimiga o'tkazilayotgan Mehribonlik uylari va Bolalar shaharchalarini ta'mirlash, rekonstruksiya qilish, jihozlash va ular hududida yangi o'quv binolarini qurish belgilab olindi.

Agentlik tizimidagi mavjud ixtisoslashtirilgan maktablar o'z faoliyat yo'nalishidan kelib chiqqan holda, mazkur Farmonga muvofiq tashkil etiladigan ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar va ixtisoslashtirilgan maktablarga metodik yordam ko'rsatuvchi tayanch maktab sifatida biriktirildi. Agentlik maktablariga qabul parametrlari bir sinfda o'quvchilarning eng ko'p soni 24 nafardan oshmasligini hisobga olgan holda Agentlik tomonidan belgilandi. 2022-2023 o'quv yilida Agentlik maktablarining aniq fanlar yo'nalishiga qabul 5 — 11-

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-apreldagi PF-106-son qarori Toshkent shahri.

sinflarga, tabiiy fanlar yoʻnalishiga 7 — 11-sinflarga, keyingi oʻquv yillarida tegishli 5- va 7-sinflarga amalga oshirildi.

Agentlik maktablariga oʻquvchilarni qabul qilish aniq va tabiiy fanlar, xorijiy tillar hamda mantiqiy fikrlash boʻyicha oʻtkaziladigan kirish imtihonlari natijalariga koʻra amalga oshirildi va kirish imtihonlari Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi tomonidan xalqaro tashkilotlar hamda Davlat test markazi bilan hamkorlikda oʻtkazildi. Roʻyxati Agentlik tomonidan tasdiqlanadigan xalqaro, mintaqaviy yoki asosiy fan olimpiadalarining uchinchi (viloyat) bosqichida gʻolib boʻlgan (1, 2, 3-oʻrin) umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va boshlangʻich professional taʼlim tashkilotlari oʻquvchilari oʻzi taʼlim oladigan hududida joylashgan Agentlik maktablariga umumiy qabul parametrlari doirasida kirish imtihonsiz oʻqishga qabul qilinadi.

Agentlik maktablarining taʼlim jarayoni Agentlik tomonidan tasdiqlangan oʻquv rejalari va taʼlim dasturlari asosida amalga oshiriladi. Agentlik maktablarida aniq va tabiiy fanlar bilan bir qatorda Oʻzbekiston tarixi fani chuqurlashtirilgan holda oʻqitiladi hamda oʻquvchilarni kasb-hunarga yoʻnaltirish, ularga keyinchalik oʻqishini davom ettirish uchun oliy taʼlim muassasalarini tanlashda koʻmaklashish maqsadida Agentlik maktablari direktorining ixtisoslik fanlari boʻyicha oʻrinbosari lavozimi oʻrniga “Maktab maslahatchisi” lavozimi joriy etildi.

Agentlik tizimidagi ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda oʻquvchilar uchun autsorsing asosida bepul sogʻlom ovqatlanish tashkil etildi. Agentlik maktablariga rahbar va pedagog kadrlarni ishga qabul qilish uch bosqichli tanlov (saralash bosqichi, test sinovi va suhbat) asosida amalga oshirildi. Agentlik maktablarida Davlat budjeti mablagʻlari hisobidan xodimlar ish haqi fondining 100 foizi miqdorida ragʻbatlantirish jamgʻarmasi shakllantirildi.

Agentlik tomonidan 2022-2023 oʻquv yilidan boshlab Agentlik maktablarida:

oʻquv jarayoni xalqaro taʼlim dasturlari asosida tayyorlangan zamonaviy darsliklar asosida olib borilishi;

o'quvchilar xorijiy tillarni mukammal o'zlashtirishi uchun zarur shart-sharoit va ta'lim muhitini yaratish, mazkur jarayonga xorijiy hamda mahalliy pedagog kadrlarni jalb qilinishi;

sun'iy intellekt, robototexnika, agrotexnologiya, nanotexnologiya, biotexnologiya, IELTS, TOEFL va SAT bo'yicha qo'shimcha kurslar tashkil etilishi;

o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, asosiy o'quv dasturlari bilan birgalikda sinfdan tashqari kasbga yo'naltirilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazilishini yo'lga qo'yish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda 10- va 11-sinf o'quvchilariga yaqin hududlarda joylashgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida amaliy mashg'ulotlar o'tkazish tartibini joriy etish;

ta'lim va tarbiya jarayonlariga vatanparvarlik ruhi, milliy g'urur va iftixor, o'z xalqiga muhabbat va sadoqat, O'zbekiston tarixi, ilmiy-ijodiy hamda ma'naviy-ma'rifiy merosga hurmat, o'zlikni anglash, mehnatsevarlik va mas'uliyatlilik, qat'iyat va shijoatlilik g'oyalari singdirilishiga alohida e'tibor qaratish;

o'quvchilarni O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun-mohiyati va yoshlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarni chuqur anglaydigan, har jihatdan raqobatbardosh, keng dunyoqarash, mustaqil fikr va intellektual salohiyatga ega bo'lgan shaxs sifatida tarbiyalash uchun ta'sirchan pedagogik texnologiyalardan foydalanish choralari yo'lga qo'yildi.

Agentlik maktablarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, zamonaviy mebel va jihozlar, o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia hamda video-kuzatuv vositalari bilan ta'minlash — O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida ajratiladigan mablag'lar, Davlat budjeti mablag'lari, Agentlik huzuridagi Iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, xalqaro moliya institutlarining kreditlari va grantlari,

homiylilik xayriyalari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshirilishi ham belgilab berildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari 2022-yil 1-avgustga qadar yuqorida keltirilgan farmonga ko‘ra Agentlik maktablarini ta‘mirlash, zamonaviy o‘quv qurollari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mebel va o‘quv-laboratoriyalar bilan jihozlash choralarini ko‘rib chiqdi, o‘quvchilarga yashash va ovqatlanish uchun zarur sharoitlarni yaratdi.

Agentlik huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash markazi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi etib qayta nomlandi va quyidagilar Markazning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- agentlik tizimidagi ta‘lim muassasalari uchun davlat ta‘lim standarti, o‘quv rejalari, ta‘lim dasturlari va darslik majmualarini ishlab chiqish hamda ularni xarid qilish;

- agentlik tizimidagi ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini yakuniy davlat attestatsiyasidan o‘tkazish;

- ta‘lim sohasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish va mamlakatimizda joriy etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish, o‘qituvchilarning bilim va ko‘nikmalarini baholash va sertifikatlashni xorijiy mamlakatlarning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikda amalga oshirish;

- rahbar va pedagog kadrlarni uzluksiz kasbiy rivojlantirish, ularning malakasini oshirishga qo‘yiladigan davlat ta‘lim talablarini ishlab chiqish hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda malaka oshirish kurslarini tashkil etish;

- agentlik tizimidagi ta‘lim muassasalarini ilmiy-metodik jihatdan ta‘minlash, fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazish, tadqiqot natijalarini amaliyotga keng joriy etish.

Markaz tomonidan pedagog kadrlarning bilim darajasi va kasbiy mahoratini baholash natijasi bo‘yicha 2 yil muddat davomida amal qiluvchi “Ilg‘or o‘qituvchi”, “Ustoz o‘qituvchi” hamda “Professional o‘qituvchi” darajali sertifikatlar beriladi. Agentlik tizimidagi ta‘lim muassasalarining xalqaro

miqyosda tan olinadigan “Ilg‘or o‘qituvchi”, “Ustoz o‘qituvchi” yoki “Professional o‘qituvchi” darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlariga quyidagi miqdorda qo‘shimcha haq to‘lanadi:

“Ilg‘or o‘qituvchi” darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 50 foiz miqdorida;

“Ustoz o‘qituvchi” darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 70 foiz miqdorida;

“Professional o‘qituvchi” darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarga ularning bazaviy tarif stavkasiga nisbatan har oylik 100 foiz miqdorida.

Agentlik tizimidagi ta‘lim muassasalariga “Ilg‘or o‘qituvchi”, “Ustoz o‘qituvchi” yoki “Professional o‘qituvchi” darajali sertifikatni olgan pedagog kadrlarni ularning malaka toifasidan qat‘i nazar ishga qabul qilish huquqi berildi. Markaz Moliya vazirligi g‘aznachilik bo‘linmasida shaxsiy g‘azna hisob raqamiga ega bo‘ladi va uning faoliyati Davlat budjeti mablag‘lari, budjetdan tashqari mablag‘lar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtirildi. Markazning ma‘muriy-boshqaruv xodimlari, professor-o‘qituvchilari hamda metodistlariga Davlat test markazining tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari tatbiq etildi.

j) Markazga unga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun ta‘lim sohasida xizmat ko‘rsatuvchi xalqaro tashkilotlar bilan maxsus axborot portaliga e‘lon joylashtirmasdan eng maqbul takliflar tanlovi orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri shartnomalar tuzish huquqi berildi.

Agentlik tizimidagi maktablarning o‘qituvchilari “Yangi O‘zbekiston” universiteti va Markazga stajirovka o‘tashga jalb qilindi. Markaz tomonidan fundamental, amaliy va innovatsion tadqiqotlar o‘tkazishda hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etishda Agentlik tizimidagi ta‘lim muassasalari o‘quvchilari va talabalarining faol ishtirokini ta‘minlandi.

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari Agentlik bilan birgalikda vakolatxonalarga birlashtirilgan hududlarda joylashgan

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalariga xorijiy ilg'or tajribalarni joriy etish maqsadida:

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalariga xalqaro ta'lim dasturlari bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb etgan holda ta'lim jarayonini takomillashtirish;

o'qituvchilar va o'quvchilarni tajriba almashish dasturlari bo'yicha xorijiy ta'lim muassasalariga yuborish;

nufuzli xalqaro oliy ta'lim muassasalari grant dasturlari asosida bitiruvchilarning ta'lim olishiga ko'maklashish;

rivojlangan davlatlar bilan ta'lim va ilm-fanni takomillashtirish borasida o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish;

dunyo miqyosida tan olingan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, tibbiyot, ekologiya, muhandislik va boshqa sohalaridagi yetakchi tashkilotlar bilan Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish va yanada rivojlantirish;

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan mahalliy mutaxassislarning xorijiy ilg'or ta'lim muassasalarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini tashkil etish;

o'qituvchilar va o'quvchilarning xalqaro konferensiyalar, anjumanlar, fan olimpiadalari, tanlovlar, ixtisoslikka oid ko'rgazmalarda ishtirok etishiga ko'maklashish;

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari kutubxonalarini yetakchi xorijiy axborot-kutubxona resurslari fondlariga ulash, ularni xorijiy adabiyotlar bilan boyitib borish, o'qituvchilar va o'quvchilarga ushbu kutubxona resurslaridan keng foydalanish uchun imkoniyat yaratish choralari yo'lga qo'yildi.

Agentlik tizimidagi ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" tasdiqlandi va Agentlik boshqa vazirlik va idoralar hamda mahalliy hokimliklar bilan birgalikda "yo'l xaritasi"da nazarda tutilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, to'liq va sifatli bajarilishi ta'minlandi.

Agentlik tashkiliy tuzilmasida yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan va har biri 4 ta shtat birligidan iborat 13 ta hududiy bo'limlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi. Unga ko'ra, Agentlik markaziy apparati va hududiy bo'limlar uchun zarur bo'lgan 67 ta shtat birligining 50 tasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi, 17 tasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi tizimidagi tegishli shtat birliklarini maqbullashtirish hisobiga shakllantirildi. Agentlik hududiy bo'limlari xodimlariga Agentlikning tegishli lavozimlari uchun belgilangan mehnatga haq to'lash va moddiy rag'batlantirish shartlari qo'llaniladi.

“Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda maktab-internatlar faoliyatini tashkil etishning shunday tartibi o'rnatildiki, unga muvofiq 2022/2023 o'quv yilidan boshlab:

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlar bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim maktablari sifatida qayta tashkil etilishi;

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlar faoliyati ushbu maktablarda ixtisoslashtirilgan dasturlar asosida ta'lim olayotgan o'quvchilar o'qishini bitirguniga qadar davom ettirilishi;

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlarning rahbarlariga hamda ixtisoslashtirilgan fanlardan dars o'tganligi uchun pedagog kadrlariga amalda belgilangan qo'shimcha ustama haqlar ushbu maktablardagi ixtisoslashtirilgan sinflar faoliyati tugatilguniga qadar saqlab qolinishi;

maktab-internatlarda o'quvchilar belgilangan tartibda yotoqxona va oziq-ovqat bilan ta'minlanishi;

fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlarda laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish, shuningdek, ayrim fanlarni chuqurlashtirilgan holda o'qitish uchun ixtisoslashtirilgan fanlar ikki guruhga bo'lib o'qitilishi mumkin;

keyingi o'quv yillarida fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlarning ixtisoslashtirilgan dasturlar asosida ta'lim beriladigan sinflariga qabul amalga oshirilmaydi".⁵

1.2. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati pedagogik muammo sifatida.

Ta'lim muassasasini boshqarish funksiyalari orasida asosiylari quyidagilardir: tahlil qilish, maqsadlarni belgilash va rejalashtirish, tashkil etish, etakchilik, nazorat va tartibga solish. Bu funksiyalar ta'lim muassasasi uchun o'ziga xos yo'nalishga ega bo'lib, bir-biri bilan izchil bog'langan, to'liq tarkibi yagona boshqaruv siklini tashkil etuvchi maxsus, nisbatan mustaqil faoliyatdir.Ta'lim muassasalari amaliyotida ham umumiy, ham xususiy boshqaruv tamoyillari mavjud. hisobga olingan. Maxsus tamoyillarga quyidagilar kiradi: bolalar va kattalar manfaatlarining uyg'unligi, maktabda boshqaruvning pedagogik yo'nalishi, me'yoriylik printsipi, ob'ektivlik printsipi, pedagogik pozitsiyalarning birligi, davlat va ijtimoiy tamoyillarning kombinatsiyasi. aqliy hujum”, munozara, “ish o'yini”, muntazam usul va boshqalar) va ularni amalga oshirish usullari (jamoaviy va individual motivatsiya usullari, ma'muriy usullar va boshqalar) Ta'lim muassasasini boshqarishning tashkiliy tuzilmalarining bir necha turlari mavjud: chiziqli, chiziqli, funktsional, chiziqli-funktsional, bo'linish, dizayn va matritsa.

“Zamonaviy amaliyotda ta'lim muassasasining eng keng tarqalgan tashkiliy tuzilmasi chiziqli-funktsional tuzilma hisoblanadi. Ta'lim muassasasini boshqarishning vertikal tuzilmasi to'rt daraja bilan ifodalanadi: direktor –

o‘rinbosarlar – o‘qituvchilar – talabalar. Menejment sub’ektining har bir quyi darajasi bir vaqtning o‘zida yuqori bo‘g‘inga nisbatan boshqaruv ob’ekti hisoblanadi. Ta’lim muassasasini samarali boshqarish tizimining muhim elementi boshqaruv uslubidir. Boshqaruv uslubi - bu menejer tomonidan afzal ko‘rgan boshqaruv faoliyatining usullari va shakllarining ma’lum bir tizimi. Yetakchilik uslubi qo‘l ostidagilarning faoliyatiga va tashkilot samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi”.²⁷

“Bugungi kunda ta’lim muassasasi rahbari uchun eng muhimi bu boshqaruvning refleksli uslubi bo‘lib, u menejerning kundalik hayotiga o‘quv jarayonini birgalikda boshqarish, birgalikdagi maqsadlarni belgilash, loyihalash kabi qadriyatlarni kiritishni nazarda tutadi. , bilimlar mazmunini o‘zgartirish, o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini rag‘batlantirish va boshqalar”.²⁸ Ta’lim muassasasini samarali boshqarishning muhim ko‘rsatkichi-o‘qituvchilar va talabalar jamoasining barqarorligi. Shu sababli, bugungi kunda ta’lim muassasasi rahbari direktor jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan faoliyat yuritish, o‘zining korporativ rag‘batlantirish, imtiyozlar tizimini yaratish, muvaffaqiyatga erishish strategiyasini yaratish, ma’naviy, psixologik va valeologik omillarni hisobga olgan holda kadrlar muammosini hal qilish yo‘llarini topishi kerak. Jamoaning barqarorligi faqat buyruq sifatida, bugungi kunda tubdan o‘zgarib bormoqda: bu yuqoridan pastgacha buyruqlarni translyatsiya qilish emas, balki axborot oqimlari va aloqa jarayonlarini tartibga solishdir. Bu vakolatlar delegatsiyasi va hamkorlikdagi yechim - asosiy masalalar, malaka va ma’naviy obro‘-e’tibor.

Ta’lim muassasasiga kelgan yangi rahbar, menejer ko‘plab muammolarni hal qilishi kerak, masalan: ta’lim muassasalarining haqiqiy raqobati sharoitida boshqaruv siyosati muammosi; ochiq va mobil ta’lim tizimiga o‘tish muammosi; malakali kadrlarni jalb qilish va ushlab turish, modernizatsiya qilish uchun qo‘shimcha mablag‘ va resurslarni topish muammosi, ta’lim sifatini o‘z vaqtida

²⁷ Maktabda o‘quv jarayonini boshqarish texnologiyasi va amaliyoti / aut.-sost.T.V. Xurtoy. - Volgograd: O‘qituvchi, 2008.- 215 p

²⁸ Tevlin BL Maktab rahbarining nazorat va tahliliy faoliyati. - M .: Vid.grupa "Osnova", 2006. - 192 b

ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratish muammosi, axborot bilan ta'minlash va almashish muammosi va boshqalar. ta'lim muassasalari, shuningdek, Mamlakatimizda butun ta'lim tizimi ushbu muammolarni hal qilish ustida jiddiy ishlashlari kerak.

II.BOB. IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI MAKTAB RAHBARLARI BOSHQARUV FAOLIYATINING AMALIY JIHALARI.

2.1. Ixtisoslashtirilgan maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligi mazmuni.

Respublikamizda zamonaviy ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish, ta'lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori umum darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlar bilan ta'minlash, rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o'zluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, umumta'lim muassasalari rahbarlarini kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishning huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "kadrlarni tanlashning samarali shakllari va uslublarini joriy qilish, davlat xizmatida kadrlarni markazlashtirilgan holda saralash, zamonaviy talablarga javob beruvchi "shaxsni aniqlashtirish" tizimini

joriy etish” ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilandi. Avvalo “rahbarlik” atamasiga to‘xtalib o‘tsak. “Rahbarlik ishning ko‘zini biladigan, kasbiga qalb qo‘ri va butun mehrini berib, o‘zi, oilasi va butun el-yurtini o‘ylab mehnat qiladigan, boshqaruv faoliyatini jon dildan seva olgan kishiga nisbatan ishlatilishi mumkin. Rahbarlik yuksak aql-farosat, ko‘p kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, o‘rni kelganda, zaruriy tadbirkorlikni talab qiladi”.²⁹

Respublikamizda zamonaviy ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish, ta’lim muassasalarini zimmasiga yuklangan vazifalarni yuqori darajada bajarishga qodir rahbar va pedagog kadrlar bilan ta’minlash, rahbar va pedagog kadrlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o‘zluksiz tizimini tashkil etish va takomillashtirish, umumta’lim ta’lim muassasalari rahbarlarini kasbiy mahorati sifati va darajasini muntazam oshirib borishning huquqiy-me’yoriy asoslari yaratildi va moddiy-texnik bazasi kengaytirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-5538-son Farmoni, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish choratadbirlari to‘g‘risida” PQ-3931-sonli Qarori, shuningdek, rahbar va pedagog xodimlarni tanlash, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or va shaffof tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini tatbiq etish yo‘li bilan xalq ta’limi tizimida kadrlar siyosatini shakllantirishning zamonaviy tamoyillarini joriy etish bo‘yicha umumta’lim maktablari direktorlarida menejerlik ko‘nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetentligini muntazam oshirish zarur. Bu esa o‘z navbatida quyida keltirilgan masalalarga e’tibor qaratishni taqozo etadi:

²⁹ Zamonaviy psixologik-pedagogik atamalar lug‘ati / N.V.Buxlov, L.M.Konovalova. - Donetsk "Kashtan", 2008. - 162 p.

-umumiy oʻrta taʼlim maktablari rahbar kadrlarining xodimlarni boshqarishida nazariy va amaliy, pedagogik-psixologik, metodik tayyorgarligi darajasini orttirish, xodimlarni motivatsiyalash va boshqaruvni tashkiliy tuzilmasini shakllantirish borasidagi ilgʻor xorijiy tajribalarni oʻrganish;

-umumiy oʻrta taʼlim maktablari rahbar kadrlarida taʼlim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur boʻladigan kasbiy bilim, koʻnikma va malakalarni muntazam yangilash, rahbar xodimlarga davlat talablari asosida ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish;

-taʼlim muassasalari rahbar kadrlarining zamonaviy boshqaruvga oid zamonaviy bilim va innovatsiyalar, ilgʻor xorijiy tajribalardan samarali foydalanish, axborotkommunikatsiya texnologiyalarini oʻquv jarayoniga keng tatbiq etish hamda chet tillarini intensiv oʻzlashtirish darajasini oshirish hisobiga ularning kasb mahoratini muntazam yuksaltirish zarur. Xalq taʼlimi tizimida umumtaʼlim maktablari faoliyatining samaradorligini taʼminlashda direktor asosiy oʻrin egallaydi. Maktab faoliyatining mazmuni direktor jamoani qanday qilib va qaysi yoʻnalishga boshlashiga bogʻliq boʻladi. Demak, taʼlimning samaradorligiga bevosita maktab jamoasiga va uning rahbariga bogʻliq.

Mamlakatimizda hozirgi iqtisodiy va ijtimoiy oʻzgarishlar davrida quyidagilar jiddiy ahamiyatga ega:

- bugun maktabni kim boshqarmoqda?
- ular oʻz majburiyatlari va masʼuliyatlarini toʻgʻri anglaganlarmi?
- ularda nazariy, metodik va tashkiliy bilimlar hamda zamonaviy maktabni boshqarish uchun qobiliyatlar yetarli mi?

- ularda vijdonlilik, halollik, insonparvarlik liderlik va menedjerlik kabi sifatlar shakllangan mi? Maktab direktorlari bilan (direktor, direktor oʻrinbosarlari bilan) olib borilgan suhbatlarni koʻpgina javoblarida byurokratlik, hujjatlar bilan ishlashda ijodiy yondashuvning yoʻqligi, A.Avloniy nomidagi xalq taʼlimi muammolarini oʻrganish va istiqbollarni belgilash ilmiy-tadqiqot institutining ilmiy-nazariy va oʻquv-uslubiy jurnali nazoratsizlik, meʼyoriy hujjatlarning mazmun-mohiyatini toʻliq anglamasligi, yuqori tashkilotlarning

ko'rsatmalarini bajarishda mas'uliyatsizlik kabi salbiy sifatlar hanuz mavjud ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Bugungi kunda, umumta'lim maktablari rahbarlarini huquqiy kompetensiyasini oshirishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjud. Bunda: boshqaruvning asosiy qoidalariga amal qilish lozim:

- "kelajakni oldindan ko'ra bilish, o'rganish, xodimlar bilan ishlash dasturini tuzish va uni amalga oshirish;

- boshqaruvni tashkil qilish – xodimlarning ijtimoiy-moliyaviy faoliyatini yaxshilash uchun sharoitlar yaratish;

- vazifalarni taqsimlash – qo'yilgan vazifalarni amalga oshirish, ularni hal etish maqsadlarida buyruqlar chiqarish;

- kelishish – xodimlarning qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda, yuzaga kelgan vaziyatni o'rgangan holda jamoada ishlar taqsimotini o'zaro moslashtirish;

- nazorat – o'rnatilgan tartibda buyruqlar va qarorlar ijrosini kuzatib boorish".³⁰ Ta'lim strategiyasini o'rnatish. Bu bosqich maktab direktori va uning hamkasblari yangi g'oyalar va tashabbuslarni izlashlari, rejalashtirishlari hamda jamoani ular bilan tanishtirib borishlari lozim (masalan: o'quvchilarda davlat manfaatlari yo'lida foydalanish uchun zarur bo'lgan, o'z kelajagi uchun ishonch va olingan bilimlardan hayotiy maqsadlarga erishish yo'lida foydalana biladigan bo'lib egallangan bilimlar uchun to'liq mas'uliyat va burchni his qilishni tarbiyalash; qator fanlarni chuqurlashtirilgan o'qitish bo'yicha ixtisoslashtirilgan sinflar tashkil qilish, maktabning moddiy texnika bazasini yaxshilash).

Menejment nazariyasining rivojlanishi jarayonida rahbar qanday fazilatlariga ega bo'lishi kerak bo'lganligi haqidagi savolga javobni (zamonaviy rahbar ega bo'lishi kerak bo'lgan F. Teylor, A. Fayol, L. I.) besh guruhga bo'lish mumkin:

³⁰ Sh.N.Zaynutdinov, N.R.Qodirxodjaeva. "Menejment" fani bo'yicha o'quv uslubiy ta'lim texnologiyasi. Uslubiy qo'llanma. "Iqtisodiy ta'limdagi o'qitish texnologiyasi" seriyasidan. T.: TDIU, 2006, 85 b

“1) umumiy insoniy fazilatlar: qiyin ish; halollik, halollik; sodiqlik, so'zga sodiqlik; o'z-o'zini tanqid qilish; insonparvarlik; xushmuomalalik; Adolat; maqsadlilik; altruizm; yuksak madaniyat, benuqson axloq; energiya; ish qobiliyati; izchillik; ishingizga bo'lgan muhabbat; optimizm; o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik; hazil tuyg'usi; tashqi jozibadorlik (tozalik, kiyim uslubi va boshqalar);

2)psixofiziologik fazilatlar: yaxshi salomatlik, stressga chidamlilik, rivojlanishning umumiy darajasi, intellektual xususiyatlar, individual psixologik xususiyatlar (temperament, shaxsiyat yo'nalishi);

3)ishbilarmonlik fazilatlar va tashkilotchilik qobiliyati: tashabbus; masalalarni hal qilishda mustaqillik; o'z-o'zini tashkil qilish (o'z va boshqalarning vaqtini tejash qobiliyati, aniqlik va aniqlik); intizom; mehnatsevarlik; maqsadni aniq belgilash va vazifa qo'yish qobiliyati; sharoitga qarab xulq-atvor uslubini o'zgartirish qobiliyati; kadrlarni tartibga solish va ularning o'zaro hamkorligini tashkil etish qobiliyati, jamoani safarbar qilish va unga rahbarlik qilish qobiliyati; qo'l ostidagilarning faoliyatini nazorat qilish qobiliyati; tez qaror qabul qilish qobiliyati va istagi (natijalarni ob'ektiv tahlil qilish va baholash qobiliyati va istagi, bo'ysunuvchilarni rag'batlantirish qobiliyati; topshirilgan ishga ijodiy yondashish; tashabbusni qo'llab-quvvatlash qobiliyati, hamma narsadan yangi, progressiv foydalanish istagi; o'z hokimiyatingizni saqlab qolish qobiliyati);

4)kommunikativ fazilatlar: rahbarning o'rnatish qobiliyati biznes aloqasi yuqori va tegishli rahbarlar bilan, qo'l ostidagilar bilan, jamoada normal psixologik iqlimni saqlash qobiliyati, muloqot qilish qobiliyati (nutq madaniyati, tinglash qobiliyati va boshqalar), omma oldida so'zlash qobiliyati;

5)kasbiy bilim: menejment fanini bilish (boshqaruv asoslari, xodimlarni boshqarish va boshqalar); zamonaviy tashkiliy va boshqaruv tamoyillari va usullarini amaliy qo'llash; hujjatlar bilan ishlash qobiliyati”³¹.

³¹ Abduraxmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. “Personalni boshqarish” (Darslik) – T.: TDIU, 2013. 292 bet

Agar rahbar yuqoridagi barcha fazilatlarga ega bo'lsa, uni ideal deb hisoblash mumkin. Rahbarning (menejerning) quyidagi fazilatlari tashkilotning samarali faoliyatiga to'sqinlik qilayotganligini qayd etadi: menejerning individual boshqaruv kontsepsiyasining etarli darajada shakllanmaganligi; menejerning tashkiliy va shaxsiy qadriyatlari va maqsadlarining mos kelmasligi; menejerning boshqaruv qobiliyatining etarli darajada emasligi; menejerning boshqaruv faoliyati sohasida bilim, ko'nikma va qobiliyatlari yo'qligi; menejerning ijodkorligi yo'qligi; o'zini boshqara olmaslik; guruhni boshqara olmaslik; xodimlarga nisbatan do'stona munosabat; shaxsiy o'sishga intilmasligi; xodimlarni rag'batlantira olmaslik ; bo'ysunuvchilar bilan muloqot qilishda qiyinchiliklar; samarasiz etakchilik uslubidan foydalanish; o'ziga va shaxsiy maqsadlariga e'tibor qaratish; Umum vazifalarni hal qilishga e'tiborning yo'qligi; ishda ijodiy yondashuvning yo'qligi; menejerning konservativ xatti-harakati; qarama-qarshi tendentsiyalarning mavjudligi xulq-atvorning nevroitik tendentsiyalarining mavjudligi; Barkamol rahbar hech qachon bunday raqamga yo'l qo'ymaydi va o'z faoliyatidagi kamchiliklar, o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, takomillashtirish va o'z-o'zini tarbiyalash ustida doimiy ish olib boradi.

Zamonaviy rahbar qanday, uning qobiliyatiga xos psixologik komponentlar qanday nomoyon bo'ladi kabi savollarga javob berar ekanmiz, zamonaviy rahbar jamoa ishlab chiqarishida boshqaruvchi, diplomat, yetakchi, murabbiy, innovator bo'lishi lozim va bu esa rahbarning sifat strukturasi kiradi.

1. Boshqaruvchi – rahbarning bu funksiyasi an'anaviy hisoblanib, boshqaruvchi vazifasini bildiradi. Boshqaruvchi rahbar xalol, o'z so'zidan chiqadigan: yuksak kasb maxoratiga ega bo'lib, ish yo'zasidan muomala qilish ko'nikmalarini o'zlashtirgan notiq, maslaxatchi, pedagog va o'z navbatida ruhiyatchi mahoratiga erishgan bo'lishi lozim.

2. Diplomat – rahbar so'nggi o'n yillar davomida, ayniqsa keng yoyilgan boshqaruv malakalari va ko'nikmalari orasida bularning avvalo mo'zokaralar

olib borish bilan bog‘liq xillarni tilga olib o‘tish lozim. O‘rta va oliy bo‘g‘in funksional rahbarlari hozirgi kunda o‘zlarining ish vaqtlarini asosan odamlar bilan aloqa bog‘lash va bu aloqalarni kengaytirishga, ish sohasidagi aloqalarni chuqurlashtirish, shartnomalar, bitimlar to‘zish, baxslarni xal qilish, xukumat bilan o‘rnatilgan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga sarflaydilar. Hozirgi sharoitda har xil vositachilar ishlarida menejerlarning ishtirok etishi tobora ko‘proq zarur bo‘lib qoldi. Mana shularning hammasi uchun kishida alohida, ya‘ni diplomatlarga xos kobilyatlar bo‘lishi kerak.

3. Yetakchi – rahbar. Zamonaviy rahbar menejerlik ishlaridan tashqari yetakchilik ishlari bilan ham shug‘ullanadi. Menejer va menejment xususidagi Amerika nazariyotchilari har bir menejer yetakchi bo‘lishi kerak degan shiorni ilgari suradilar. Menejerlik vazifasi bilan yetakchilik vazifasi bir ma‘noni anglatmaydi. Bizda menejerlik vazifasi deyilar ekan, ko‘pincha biznesning moddiy kenja tizimi faoliyatini ishlab chiqarish resurslari, muomalalar, texnologik jarayonlarni quvvatlab borish uchun zarur bo‘lgan jami Umum harakatlar tushuniladi. Bu vazifani yaxshi uddalash uchun menejer insonlarni o‘ziga ergashtirib borish qobiliyatiga ega bo‘lishi, ya‘ni yetakchi vazifasini bajarishi lozim

4. Murabbiy rahbar - ishlab chiqarish jarayonlari murakkablashib borgani sari xodimlarga qo‘yiladigan talablarni oshiradi. Bir tomondan xodimlarning texnologik bilimlarini oshirish extiyoji paydo bo‘lsa, ikkinchi tomondan ularda hayot faoliyatining ma‘naviy tomonlarini kamolotga yetkazish zaruriyati tug‘iladi. Murakkablashib borayotgan texnika – texnologiya mutaxassislarga o‘zluksiz kasb – ta‘lim berib borish zaruriyatini tug‘dirish xech kimda shubxa uyg‘otmaydi. Buning uchun bu ishga talaygina mablag‘larni sarflashga to‘g‘ri keladi. Lekin xodimlarni ma‘naviy tomondan kamolotga yetkazish borasida sustkashlik qilindi va shuning uchun ishlab chiqarishda ham zarar ko‘rilmokda. Vaholanki, xodimlarning yaxshi tarbiya ko‘rganligi, yuksak ma‘naviy axloqqa ega ekanligi iqtisodiyotning ijtimoiy mintaqasidan o‘tib borishi uchun xal qiluvchi shart bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida samarali boshqaruv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur shaxs xislatlarini keltirib o‘tdik. Bu xislatlarni bilish, rahbar ularni o‘zida shakllantirishga intilishi, so‘zsiz, uning boshqaruv mahoratini yanada yuqori pog‘onalarga olib chiqadi va tashkilotning ko‘zlangan maqsadga yo‘nalishini tezlashtiradi. Lekin, metodologiya nuqtai nazaridan rahbar shaxsi shunchaki xislat yig‘indisidan iborat emas, ayni vaqtda mazkur xislatlarni mujassamlashtirib, uyg‘unlashtirib turuvchi yanada shiddatli kuchlar borki, ular ishtirokida xislatlarning ma‘lum kombinastiyasidan iborat rahbar qiyofasi mavjud bo‘lishi mumkin. Rahbar etnopsixologik xususiyatlarga ega bo‘lish orqali dilkashlik, ibolilik va nazokatlilik fazilatlariga ega bo‘ladi. Milliy qiyofa, milliy ong, milliy xarakter, milliy xis-tuyg‘u milliy shaxslararo munosabat bilan qurollanish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

2.2. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarining boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish modeli.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta’lim tizimidagi islohotlar ta’lim tizimini boshqarish mexanizmlarini o‘zgartirish, takomillashtirishni, ya’ni boshqaruvning ma’muriy buyruqbozlik metodlaridan voz kechib, ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy talablarga mos keladigan, demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu bugungi kunning eng asosiy talablaridan biri bo‘lib nafaqat boshqaruv muammolari, balki sub’ektlarning boshqaruv faoliyatini tashkil etish va ularni shakllantirish zamirida, eng avvalo, boshqaruv tizimining turli bo‘g‘ini rahbarlarining boshqaruv faoliyatini takomillashtirishning yo‘l-yo‘riqlarini aniqlash, yangi sharoitlarga muvofiqlashtirish va amaliyotga joriy etish vazifalarini belgilaydi. Shundan kelib chiqib, ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan islohotlar barcha ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil qiladi.

Jahondagi ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida ta’lim muassasalari rahbar kadrlar boshqaruv samaradorligini modellashtirish, kasbiy tajriba asosida

rahbar boshqaruv samaradorligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan tadqiqotimiz davomida yuqorida bildirigan fikr va mulohozalarga asoslangan holda boshqaruv yo'nalishida boshqaruvchilar tayyorlaydigan Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishning istiqbolli yo'nalishlari, uslubiy-maxsus, ijtimoiy-madaniy va autopsixologik kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida umumta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda ixtisoslashtirilgan ta'lim maktablari rahbarlarining boshqaruv kompetentligini modellashtirish (2.2.1-chizma) masalalariga alohida e'tibor berilmoqda.

2.2.1-chizma

2.2.1-chizma.Boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish modeli

Boshqaruv vazifalari va funksiyalari: "Funksiya"-bu lotincha soʻz boʻlib, biror kimsa yoki narsaning ish, faoliyat doirasi, vazifasi degan maʼnolarni bildiradi."Vazifa" esa oʻz faoliyat doirasidan tashqarida ham boʻlishi mumkin. Boshqaruv funksiyasi deganda u yoki bu obʼektni boshqarishga oid aniq vazifalarni hal etishga qaratilgan bir turdagi ishlar majmui tushuniladi. Demak, boshqaruv muayyan funksiyalar orqali amalga oshiriladi. Funksiyalarni aniqlash, ularning mohiyatini ochish va oʻrganish boshqaruv jarayonini toʻgʻri tashkil qilishning muhim shartidir.

“Gʻarb menejmentining bugungi zamonaviy nazariyasi boshqarish funksiyalarini tasniflashda, eng avvalo uning asosiy (umumiy) funksiyalariga ustuvorlik beradi:

- rejalashtirish;
- tashkil qilish;
- tartibga solish va muvofiqlashtirish;
- nazorat;
- ragʻbatlantirish (motivlashtirish)³².

³² Полукадров В.Л. Основы менеджмента: учебное пособие./ В.Л Полукадров 3- е изд., перераб. и доп.- М.: КНОРУС, 2009.- 240 с.

Boshqarish funksiyalari – ko‘p qirrali tushunchadir. Shu sababli ularni muhim belgilar bo‘yicha turkumlarga ajratib o‘rganish zaruriyati tug‘iladi. Rejalashtirish: Boshqarishning asosiy va dastlabki funksiyasidir. Har qanday boshqarish reja to‘zishdan boshlanadi.

Bu rejada:

- boshqaruv maqsadlari va vazifalari, ularni realizatsiya qilish muddatlari belgilanadi;

- vazifalarni amalga oshirish usullari ishlab chiqiladi;

- xalq xo‘jaligi bo‘g‘inlarining o‘zaro aloqalari o‘rnatiladi;

- Rejalashtirishning umumiylik xususiyati shundaki, bunda har bir boshqaruv xodimi o‘zining shaxsiy ishini rejalashtiradi, o‘z ish joyining faoliyati ko‘rsatkichlarini ishlab chiqadi, rejalarni qanday bajarayotganini nazorat qilishni uyushtiradi. Rejalashtirish – bu istiqbolni ijodiy belgilash bo‘lib, unda faoliyat maqsadlari, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vositalar aniqlanadi, ma‘lum sharoitlarda eng samarali hisoblangan uslublar ishlab chiqiladi. Rejalashtirish barcha tashkilot strukturalari strategiyasida o‘z aksini topadi va korxonaning butun ishi kelajakni bashorat etish va strategik rejalar asosida ta‘minlanadi.

Tashkil qilish. Bu funksiya boshqaruv ob‘ekti doirasida barcha boshqariluvchi va boshqaruvchi jarayonlarning uyushqoqligini ta‘minlaydi. Shu no‘qtai nazardan tashkil qilish ichki va tashqi shart-sharoitlarning o‘zgarib turishiga qarab amaldagi tizim tarkibini takomillashtirish yoki yangisini to‘zish demakdir. Bu funksiya joriy va strategik rejalarining ijrosini ta‘minlash bo‘yicha birinchi qadamdir. Tashkil etish – bu texnik, iqtisodiy, ijtimoiy va shu kabi boshqarish tizimlarini tashkil etishni bildiradi. Uning vazifasi, avvalo, eng maqbul tashkiliy tuzilma qurish, moddiy, mehnat, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, boshqarish tizimlari orasidagi munosabatlarni uyushtirishdir.

Rejalashtirish boshqarishning strategiyasi hisoblansa, muvofiqlashtirish boshqarishning taktik masalalarini hal qilib beradi. Bu funktsiyaning asosiy vazifasi oqilona aloqalar o'rnatish yo'li bilan boshqariladigan tizimning turi qismlari o'rtasida kelishib ish olib borishni ta'minlashdir. Muvofiqlashtirish mablag'larni tejash maqsadida boshqaruvdagi parallelizm va bir-birini takrorlashni bartaraf qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, u turli tarmoqlar o'rtasida resurslarni taqsimlash yo'li bilan nisbat va mutanosiblikni, ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtasidagi munosabatni o'rnatadi.

Tartibga solish muvofiqlashtirishning davomi bo'lib, u sodir bo'lib turadigan og'ishlarni bartaraf qilish yo'li bilan ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Uning yordami bilan vujudga kelishi ehtimol tutilgan og'ishlarning oldi olinadi.

Muvofiqlashtirish-harakatlarning o'zluksizligini ta'minlovchi menejmentning muhim funktsiyasi. Muvofiqlashtirishning maqsadi – tashkilotning hamma pog'onalari o'rtasida optimal aloqalarni (kommunikatsiya) o'rnatish vositasida hamma bo'limlarning muvofiq ishlashini ta'minlash. Bunda intervyu, hisobotlar, majlislar, kompyuter aloqalari, radio va televidenie vositalari keng miqyosda foydalaniladi. Turli aloqa shakllari yordamida bo'linmalar o'rtasida hamkorlik ta'minlanadi, resurslarni manyovrlash amalga oshiriladi, menejmentning hamma funktsiyalarining, hamda rahbarlar harakatining birligi va muvofiqligi erishiladi.

Nazorat-bu funktsiyaning maqsadi "tutib olish", "aybini ochish", "ilintirish" emas, balki boshqaruv ob'ektida sodir bo'layotgan jarayonlarni hisobga olish, tekshirish, tahlil qilish va ma'lum tartibda shu ob'ekt faoliyatini o'z vaqtida sozlab turishdir. Nazorat o'rnatilgan me'yoriy hujjatlardan, rejalaridan og'ishlarni, ularning joyi, vaqti, sababi va xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Nazorat funktsiyasining vazifasi ish natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan baholash va hisobga olishdir. Uning asosiy dastaklari – kuzatish, tashkilot hamma sohalarini tekshirish, baholash va tahlil qilish. Nazorat teskari aloqa

elementi sifatida namoyon bo‘ladi. Nazorat ma’lumotlari asosida qabul qilingan qarorlarga, rejalarga, norma va normativlarga to’zatislar kiritiladi.

Ta’sirchan nazoratni tashkil qilish har bir rahbarning funksional ishidir. Muntazam nazorat yo‘q joyda yuksak pirovard natijalarga erishib bo‘lmaydi. Boshqarish funksiyasini tasniflashning ikkinchi yondoshuvida boshqarish ishini aniq ijrochilar bo‘yicha taqsimlashga ustuvorlik beriladi. Bunda bir butun aniq funksiyalar tizimi ajratiladi. Masalan, zamonaviy g‘arb firmalarida ishlab chiqarishga oid 20-25 tadan kam bo‘lmagan funksiyalar ajratiladi. Bular quyidagilardir:

- asosiy ishlab chiqarishni boshqarish;
- qo‘shimcha ishlab chiqarishni boshqarish;
- ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi ishlab chiqarishni boshqarish;
- marketingni boshqarish;
- moliviy boshqarish;
- sifatni boshqarish;
- mehnatni boshqarish;
- xodimlarni boshqarish;
- innovatsiyani boshqarish.

Qayd qilingan funksiyalar bir-biri bilan bog‘liq va ma’lum darajada tartibga solingan ko‘p unsurlardan, tarkibiy kislardan iborat bo‘lib, ular yaxlitlikka ega. Shuning uchun ham boshqarish jarayonida ularning birortasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. "Tuzilma" - lotincha so‘z bo‘lib, narsalar tarkibiy qismlarining o‘zaro bog‘liq, ravishda joylashishi, to‘zilishini bildiradi. Boshqarish tuzilmasi deganda, boshqaruv maqsadlarini amalga oshiruvchi va funksiyalarni bajaruvchi bir-biri bilan bog‘langan turli boshqaruv organlari va bo‘g‘inlarining majmui tushuniladi. Boshqarishning u yoki bu vazifalarini hal qilish uchun muayyan organlar to‘ziladi. Boshqarish organlari tizimi, quyi organlarning yuqori organlarga bo‘ysunishi va ular o‘rtasidagi o‘zaro aloqa boshqarish tuzilmasi tushunchasini tashkil qiladi. Bo‘linmalar yig‘indisi, ularning tarkibi va o‘zaro aloqa shakllari tashkilotlarning ishlab

chiqarish tuzilmasini tashkil etadi. Har bir tashkilot o'ziga xos tuzilmaga egadir. Shunday qilib, boshqarishning maqsadlari, funksiyalari, vazifalari, obektlari va organlari uning tashkiliy tuzilmasini belgilab beradi. Tashkiliy tuzilmalarni hosil qiladigan boshqarish organlari boshqaruv bo'g'inlari va boshqaruv bosqichlari shaklida bo'ladi. Boshqarish bo'g'ini - bu boshqarishning ayrim yoki qator funksiyalarini bajaruvchi mustaqil tuzilmasi bo'limlaridir. Bu bo'limlar o'rtasidagi bog'lanish va aloqalar gorizontal xarakterga ega: Vazirlik, boshqarma, ta'lim muassasasi, bo'limlar. Boshqarish bosqichlari bir boshqarish bo'g'inining ikkinchisiga, odatda, quyi bo'g'inning yuqori bo'g'inga izchillik bilan bo'ysunishini ko'rsatadi. Bu vertikal bo'yicha bo'linishdir. Barcha bo'g'in va bosqichlarning tarkibi va ularning o'zaro bo'ysunish tartibi, har bir boshqaruv organi va bo'g'inning huquq va burchlari, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlar tartibi, axborot kabi boshqarishning tashkiliy unsurlari boshqarish tizimini tashkil qiladi. Boshqarish tuzilmasi boshqarish apparatining operativ ishlashini ta'minlashi lozim. Bu faoliyat joriy vazifalarni o'z vaqtida va mohirlik bilan tez hal etishda namoyon bo'ladi. Bunga ishlab chiqarishning miqyosi, murakkabligi, boshqarish obektlarining joylashuvi ham ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, boshqarish tuzilmasi qanchalik mukammal bo'lsa, ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir o'tkazish shunchalik samarali amalga oshiriladi.

Boshqarishning quyidagi asosiy tashkiliy tuzilmalari mavjud:

- chiziqli tuzilma;
- chiziqli-shtabli tuzilma;
- funksional tuzilma;
- chiziqli-funksional tuzilma;
- dasturli-maqsadli tuzilma;

Har bir tuzilmada rasmiy va norasmiy aloqalar mavjud. Rasmiy aloqalar, avvalo vertikal aloqalardir. Ular rahbarlik va bo'ysunish turlariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Agar rahbarlik to'laqonli bo'lib, quyi organ quyi faoliyatga doir barcha masalalarga daxldor bo'lsa, bunday aloqa chiziqli rasmiy aloqa deb

ataladi. Agar rahbarlik cheklangan bo'lib, quyi organ quyi faoliyatga doir o'zining masalalariga daxldor bo'lsa, bunday aloqa funksional vazifaviy rasmiy aloqa deb ataladi. Organlar o'rtasidagi vertikal aloqadan tashqari gorizontal aloqalar ham mavjud bo'lib, ular muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish va hamkorlik qilish tarzidagi aloqalardir. Boshqaruv tuzilmasida asosiy o'rinni hokimiyatga tayanadigan rasmiy aloqalar egallaydi. Lekin norasmiy aloqalar muhimdir. Ba'zan ular tashkilotning ishini yo'lga qo'yishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Norasmiy aloqalar turli xilda bo'lishi mumkin. Bular jumlasiga tashkilotdagi qarindoshlik aloqalari, unda tarkib topgan umumiy manfaatlar, masalan, kasblar, qiziqishlar, sport bilan shug'ullanish yoki do'stona munosabatlar, birga o'qiganlik va boshqalar kiradi.

Norasmiy aloqalar ham e'tibordan chetda qolmasligi zarur. Chunki:

- norasmiy aloqalar rasmiy tuzilmaning barcha bo'g'inlari bilan kesishadi;
- qator munosabatlar ishdan tashqarida paydo bo'ladi va korxonaning barcha ishiga ta'sir ko'rsatadi;
- norasmiy tizim o'zining ko'pgina ko'rsatkichlari bo'yicha korxonaning faoliyatining samarali tashkil qilishga imkon beradi.

Ammo norasmiy aloqalarning salbiy jihatlari ham yo'q emas. Ehtiyotkorlik, sezgirlik yo'q bo'lgan joyda guruhbozlik, mahalliychilik, qarindosh-urug'chilik va shunga o'xshash ko'rinishlarning sodir bo'lishi hech gap emas.

Har bir rahbar o'ziga ishonib topshirilgan bo'linma faoliyatini yakkaboshchilik asosida boshqaradi va barcha zarur qarorlarni mustaqil ravishda qabul qiladi. Bo'ysunuvchi xodimlar faqat o'zlarining bevosita rahbarlarining farmoyishlarini bajaradilar. Yuqori turuvchi rahbar xodimlarga ularning bevosita boshlig'ini "chetlab" murojaat qilmasligi zarur. Masalan, tashkilot rahbari bo'lim boshlig'ini chetlab ustaga buyruq bermasligi lozim. Shu tariqa rahbarlikning vertikal liniyasi va bo'ysunuvchilarga ta'sir ko'rsatishning

to'g'ridan-to'g'ri yo'li ochiladi. Chiziqli tuzilmaning o'ziga xos ijobiy tomonlari va kamchiliklari bor.

Ijobiy tomonlari:

- bunday tuzilma bir-biriga zid, chalkash topshiriqlar berilish hollarini kamaytiradi;
- yakkaboshchilikni va shaxsiy javobgarlikni mustahkamlaydi;
- bu tuzilma oddiy, puxta va tejamlidir;
- bosqichlar soni kam bo'lganda boshqariluvchi ob'ekt ishiga kam kishi aralashadi;
- vazifalar tezkor hal etiladi butun tizim samarali ishlaydi;
- xodimlar faqat o'z rahbariga hisobot beradilar, natijada ijrochilik va intizom darajasi ancha oshadi.

Salbiy tomonlari:

- bunday tuzilma oddiy, barqaror masalalarni yechishga mo'ljallanganligi sababli uning doirasida kompleks masalalarni hal qilish ancha qiyin kechadi, bunday sharoitda rahbarlar ko'proq tezkor ishlar bilan band bo'lib, strategik kompleks muammolarni e'tibordan chetda qoldiradilar.

- bunday boshqarishda teng huquqli tuzilma birliklari negizida gorizontal bog'lanish bo'lmaydi, bunday boshqarish sharoitida buyruqbozlik va rasmiyatchilikning paydo bo'lish xavfi kuchli chunki, tuzilmaning har bir bo'g'inida rahbar o'z lavozimi bo'yicha farmoyish berish uchun barcha huquqlarga ega bo'ladi.

Chiziqli-shtabli tuzilma har bir rahbar ho'zurida ixtisoslashgan xizmatlar, maslahatchilar kengashi, ya'ni shtablar to'zish orqali tashkil etiladi. Bu tuzilma quyidagi ko'rinishga ega:

- 1.Maslahatchilar, referentlar, yuridik xizmat bo'limi va boshqaruvchi.
- 2.Marketing tadqiqoti bo'yicha marketologlar guruhi, mehnatni muhofaza qilish xizmati, audit guruhi va boshqaruv.

Bu yerda mehnat taqsimoti ikki turdagi maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Chiziqli rahbarlar tashkilotning bosh maqsadiga erishish yo'lidagi

birlamchi vazifalarning bajarilishiga javobgar bo'lsalar, shtabdagilar esa birlamchi vazifalarga tobe bo'lgan ikkilamchi vazifalarning bajarilishiga javobgardirlar. Ular maslahat berish funksiyasini bajaradilar. Chiziqli rahbarlarning asosiy vazifasi taklif etilgan ijobiy va salbiy maslahatlar ichidan maqsadga muvofiq'ini aniqlash va uni o'zil-kesil qabul qilishdan iborat.

Shtablarning tashkil qilinishi va bunday yordamchilarga ega bo'lgani uchun tashkilot faoliyatini boshqarish bir tomondan yengillashadi, boshqa tomondan esa berilgan maslahatlar qarama-qarshi bo'lganligi sababli murakkablashadi. Shunday hollarda har ikkala tomon o'zini ma'qullashga, o'z obro'larini saqlashga harakat qiladi. Natijada o'rtada nizo chiqadi. Bu tuzilmaning afzalligi shundan iboratki, chiziqli rahbarlar o'z diqqatlarini ilmiy-tadqiqot ishlarga emas, balki asosan, tashkilotning joriy faoliyatiga qaratadilar. Kamchiligi esa boshqaruv tizimida ortiqcha bo'g'inlarning paydo bo'lishi, boshqarish tezkorligining susayishi, boshqarish xarajatlarining o'sishidadir.

Chiziqli-shtabli tuzilmadan farqli o'laroq boshqaruvning funksional tuzilmasi rahbarlar va tuzilma bo'g'inlarining boshqaruv faoliyatini ixtisoslashtirishga qaratilgan. Bunda har bir boshqaruv bo'g'iniga muayyan funksiyalar birlashtirib qo'yiladi. Masalan, biri marketingni, ikkinchisi ishlab chiqarishni, uchinchisi esa moliyani boshqarish bilan shug'ullanadi. Umumta'lim muassasasi direktori quyidagi funksional vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilar huquqlarini himoya qilish talablariga rioya etilishi uchun davlat va jamiyat oldida javob beradi, ta'lim jarayonini rejalashtiradi va tashkil etadi, uning borishi va natijalarini nazorat qiladi, ta'lim muassasasi faoliyati sifati va samaradorligi uchun javobgardir;

- davlat va jamoat organlarida ta'lim muassasasi manfaatlarini ifodalaydi;

- o'quvchilarni nazariy darslardan tashqari amaliy mashg'ulotlar olib borish ishlarni tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi;

- direktor o'rinbosarlarini tanlashni amalga oshiradi, ularning funksional vazifalarini belgilaydi, pedagogik jamoa, o'quvchilar va ota-onalar (ularning

o‘rnini bosuvchi shaxslar) fikrini inobatga olgan holda ta’lim muassasasining pedagogik tarkibini tashkil qiladi, guruh rahbarlarini tayinlaydi;

- ta’lim muassasasining pedagogik, boshqaruv, o‘quv va xizmat ko‘rsatuvchi xodimlarini ishga qabul qiladi va bo‘shatadi;

- ta’lim muassasasiga ajratiladigan byudjet mablag‘laridan belgilangan tartibda oqilona foydalanishni tashkil etadi;

- ta’lim muassasasi kengashi bilan kelishilgan holda ijodiy mehnat qilayotgan o‘qituvchilarning ish haqiga ustamalar belgilaydi;

- ta’lim muassasasi professor-o‘qituvchilarining ijodiy o‘sishi, ularning ta’lim va tarbiyaning ilg‘or shakl va usullaridan foydalanishi, pedagogik tajribalarni amalga oshirishi uchun sharoit yaratadi;

- o‘z faoliyati uchun tegishli ta’lim boshqaruvi organi oldida javobgardir.

Umumta’lim muassasi direktorining ko‘rsatilgan funktsional vazifalari umum ta’lim muassasasi turiga, hududiy joylashishiga, o‘quvchilar tarkibiga va pedagogik xodimlarning xususiyatlariga, ota-onalar va jamoatchilik bilan ishlashning amaldagi tizimiga qarab, Umum ta’lim muassasasining Ustavida sezilarli darajada to‘ldirildi. Umum ta’lim muassasasi direktori o‘quvchilarning o‘zini o‘zi boshqarish , o‘zlari tanlagan kasb-mutaxassisliklarini puxta egallashga yo‘naltirish, ota-onalar bilan ishlash va boshqalar bilan bog‘liq masalalarni ko‘rish sohasida. Umumta’lim muassasasi direktori o‘z vakolatlari doirasida ta’lim muassasasi nomidan maktab mulkiga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqini amalga oshirishga qaratilgan shartnomalar to‘zadi va boshqa harakatlarni amalga oshiradi.

2.3. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab rahbarlarinin boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish usullari.

Umumta’lim tizim rahbar xodimlarining kommunikativ kompetentligi og‘zaki, yozma va kompyute vositachiligida faoliyat doirasida o‘zaro axborot va tajriba almashishni samarali amalga oshirishga qaratilgan istak, qobiliyat va tayyorgarlik sifatida belgilanib, pedagogik-psixologik asoslarini aniqlashda

alohida ahamiyatga ega. Boshqaruvga tizimli yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u o'rganishni ob'ektning yaxlitligini, uni ta'minlovchi mexanizmlarni ochib berishga, murakkab ob'ektning turli bog'lanish turlarini aniqlashga va ularni yagona nazariy asosga birlashtirishga yo'naltiradi. Maktab tegishli bo'lgan ijtimoiy tizimlarning belgilarini aniqlash uchun tizim tushunchasining ta'rifiga murojaat qilish kerak.

O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlash texnologiyasini tizim shaklida zamonaviy asoslash va amalga oshirish aniqlik, ilmiylik, ob'yektiaik va amaliyotga qaratilganligi bilan muayyan afzalliklarga ega. Bu esa, o'z navbatida, rahbarlik lavozimlariga fidoyi, ishbilarmon mutaxassislar, zamonaviy rahbarlar kelishi uchun zamin hoziraydi. Bunda rahbar kadrlar tayyorlash texnologiyasi bosqichlari uzviy holda olib boriladi. Ushbu texnologik tizimni taklif etayotgan mutaxassislar fikriga ko'ra, har bir bosqich o'ziga xos faoliyat doirasiga ega bo'lib, ularni quyidagicha sharhlash mumkin:

“Birinchi bosqich-keyingi bosqichlar uchun belgilovchi, g'oyaviy-strategik manba vazifasini o'taydi. Zero, har bir mamlakat o'z taraqqiyotining ma'lum bir davri uchun muayyan maqsadni hamda unga erishish yo'lila bajarilishi kerak bo'lgap vazifalarni belgilab oladi va ularning qay darajada bajarilishi rahbar kadrlarning xislatlari, ijrochilik mahoratiga bog'liq bo'ladi.

Ikkinchi bosqich. Zamonaviy rahbar modeli ilmiy-amaliy jihatlardan asoslangach. uning hayot bilan yaqinligi. birligini ta'minlash taqozo etiladi. Buning uchun “maqsad-natija”, “ideal rahbar-real rahbar” orasidagi farq izchil o'rganiladi. Ideal va real rahbar modellari orasidagi farq, nomuganosiblikning sabablari anikdanadi, ularni bartaraf qilish choralari belgilanali.

Uchilchi bosqich. Rahbar kadrlar tayyorlash davlat tomonidan amalga oshiriluvchi uzluksiz jarayondir. Shu sababli ham bu jarayon istiqbolni ko'zda tutgan holda tashkil qilinadi.

To'rtinchi bosqich. Oliy o'quv yurtlarini muvaffaqiyatli bitirib, boshqaruv organlarida faoliyat ko'rsatayotgan va o'zlaridagi rahbarlik, tashkilotchilik

qobiliyatini namoyon qilayotgan yosh yigit-qizlar rahbar kadrlarning davlat zaxirasini shakllantiruvchi asosiy manba hisoblanadi.

Beshinchi bosqich. Respublikamizning viloyat, tuman, mahalliy boshqaruv tarmoqlaridagi rahbarlar faoliyatini o'rganish va baholash hokimiyatning ijro intizomini mustahkamlash hamda islohotlar sifati va sur'atini yuksaltirish shartlaridan biridir.

Oltinchi bosqich. O'zbekistonda rahbar kadrlar tayyorlashning texnologik tizimi natijalari bir yilda bir marta muhokama qilinishi mumkin. Bunda har bir bosqichni amalga oshirish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar tahlil qilinib, umumlashtiriladi.

Yettinchi bosqich. Kadrlar siyosati kundalik hayotda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga hamohang ravishda rivojlanib boradi. Qolaversa, mamlakat iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlarni chuqur tahlil qilgan holda ularni tezkorlik bilan hayotga joriy qilish vazifasi ham, avvalo, rahbarlarning zimmasiga tushadi.

Sakkizinchi bosqich. Islohotlarni amalga oshirish jarayonida rahbarlar zimmasiga yuklatiladigan vazifalar turli yillarda bir-biridan farq qiladi. Tabiiyki, bu rahbarlardan yangi vazifalarni hal qilish uchun chuqur bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lib borishni talab qiladi. Oxirgi bosqichga kelib, rahbarlarni ana shu yangiliklar bilan tanishtirish, ularning yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish takomillashgan texnologik vazifa sifatida amalga oshiriladi³³.

Rahbarning jamoaga ta'sir o'tkazishining turli vositalari mavjud. Ular qatoriga quyidagilar kiradi:

- "tashkiliy-rasmiy uslublar - rahbarning jamoada o'zini tutish qoidalari;
- ijtimoiy-psixologik uslublar -ma'naviy rag'batlantirish, sog'lom

³³ Madiyarov G.A. Iste'mol tovarlari bozorida marketing tizimini rivojlanishi. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. -T.: TDIU, 2008. 86-b

- muhitni yaratish, xodimlarda axloqtamoyillariga muvofiq yashash ehtiyojlarini

- rivojlantirish. Ular bilvosita boshqaruvga ta'sir ko'rsatadi hamda ijtimoiy vositalar- jamoada o'zaro munosabatlar tizimi, zarur xislatlar, ijtimoiy ehtiyojlarni

- shakllantirish omillaridan foydalanishga asoslangan;

- ma'muriy uslublar - rahbarning xodimga o'zini jamoada tutishi;

- axloq tamoyillariga rioya etishini tushuntirish, rahbar-likda adolat, insonparvarlik, xolislikka amal qilish;

- tarbiya uslublari - rahbar xodimni muayyan xatti-harakatga (ishontirish va majburlash) undaydi hamda uning faoliyati va xatti-harakatini baholaydi (mukofotlash va jazolash)³⁴.

- Ishontirish uslubi — rahbar xodimlarda o'z vazifalarini samarali bajarish, ish jarayonida hamkasblari bilan ahil bo'lish axloqiy sifatlarini shakllantiradi.

Ijroga yo'naltirish uslubi buyruqyoki iltimos shaklida bo'lishi mumkin. Farmoyish berish rahbarning ish vositasi hisoblanadi. O'ziga bo'ysunuvchiga topshiriq berar ekan, u har gal buning uchun buyruq yoki iltimos shaklini qo'llashdan iborat axloqiy tanlovga ro'para bo'ladi.

Rag'batlantirish uslubi xodimlar ish faoliyatini baholashda qo'llaniladi.

